



English translations of Abdulla Qodiriy's novel "Bygone Days"

Feruza DADABAYEVA¹

Namangan University of Business and Science

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

literary translation,
novel writing,
national spirit,
original version,
translation language,
translator's skills.

ABSTRACT

This article discusses the English translation of Abdulla Qodiriy's novel *Bygone Days*, which significantly created the Uzbek novel school. It is important to note that a translator must possess the skills to translate the original work of art without compromising its spirit, content, form, or style. The translator must also be able to convey the expressions and language nuances of the original in a way that is appropriate and effective in the target language.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp75-82>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Abdulla Qodiriy "O'tkan Kunlar" romani inglizcha tarjimalari xususida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

badiiy tarjima,
romanchilik,
milliy ruh,
asl nusxa,
tarjima tili,
tarjimon mahorati.

Ushbu maqolada o'zbek romanchilik maktabi yaralishiga omil bo'lgan Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalari xususida so'z boradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aslyatdagi badiiy asarni uning ruhiga, mazmuniga, shakl-shamoyiliga putur yetkazmasdan tarjima qilish, asl nusxadagi ibora, ifoda va til vositalarini o'z tilida har jihatdan mos bo'lgan so'z va iboralar bilan ifodalashi tarjimondan katta mahorat talab etadi.

¹ Senior lecturer, Namangan University of Business and Science. E-mail: feruzadadaboeva265@gmail.com

Английский перевод романа Абдуллы Кадири “Минувшие Дни”

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

художественный перевод,
написание романа,
национальный дух,
оригинальная версия,
язык перевода,
навыки переводчика.

В данной статье рассматривается английский перевод романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни», который стал фактором создания узбекской школы романа. Следует отметить, что он требует от переводчика таких навыков, как перевод оригинального произведения искусства без ущерба его духу, содержанию, форме и стилю, а также выражение и языковые средства оригинальной версии словами и выражениями, подходящими во всех отношениях на родном языке.

KIRISH

Badiiy tarjimaning o'rne va ahamiyati jahon adabiyotshunosligida doimo yuksak baholangan. Chunki badiiy tarjima xalqlarni bir-birini teranroq tushunishiga, asardagi ezgulik, adolat, yaxshilik kabi g'oyalarni o'zga xalqlar dilidan joy olishiga va natijada bu g'oyalar insoniyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishiga zamin yaratadi. Muayyan milliy muhitda yuzaga kelgan muammolar va xususiyatlarni aks ettiradigan milliy badiiy asar ana shu jihati bilan umuminsoniy xarakter kasb etadi.

Tarjimashunos G'.Salomov: “Badiiy asarlar tarjimasining xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi” deb ta'kidlaydi [11;158]. Albatta, har bir satrida milliylik va tarixiylik ufurib turgan asarni tarjima qilish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Tarjimon tarixiy asarga asos qilib olingan o'tmish davr bilan yaxshi tanish bo'lishi, asardagi milliy ruhni chuqur mushohada qila olishi, o'zbekona lutf va urf-odatlarini puxta bilishi, shu bilan birga, asliyat adabiyotining bilimdoni yoki mazkur adabiyot anhanalaridan boxabar bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash lozimki, asliyatdagi badiiy asarni uning ruhiga, mazmuniga, shakl-shamoyiliga putur yetkazmasdan tarjima qilish, asl nusxadagi ibora, ifoda va til vositalarini o'z tilida har jihatdan mos bo'lgan so'z va iboralar bilan ifodalashi tarjimondan katta mahorat talab etadi. Ma'lumki, har qanday tarjima V.G.Belinskiy so'zlari bilan aytganda, asl nusxa tilini bilmagan kishilar uchun mo'ljallanadi [4;453].

Tarjimonning maqsadi- asl nusxa tilini bilmagan kitobxonni o'sha asar matni, g'oyasi, mazmuni bilan iloji boricha to'la va mukammal tanishtirish bilan birga, muayyan til vositalari bilan ifodalangan asliyatni boshqa til vositalari bilan tarjima qilishdan iboratdir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Shunday asarlar bo'ladiki, ularning mualliflari badiiy ijodning turli sohalarida qanchalik go'zal va umrboqiy san'at namunalarini yaratganlariga qaramay, faqat shu asarlari bilan el-yurt o'rtasida mashhur bo'ladilar va bu asarning dovrug'i avloddan avlodga, yurtidan yurtga ko'chib yuradi. O'zbek adabiyotining purviqor siymolaridan biri

Abdulla Qodiriy ijodining gultoji - “O’tkan kunlar” romani shunday boqiy asarlardan biridir.

Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarining ilk boblari yozila boshlanganiga bu yil qariyb 100 yil to’ladi. O’zbek milliy adabiyoti tarixida katta adabiy hodisa bo’lgan “O’tkan kunlar” asarining mukammal matni, izohi va tili masalasi bugungi kun adabiyotshunosligi va qodiriyshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Afsuski, asarning adibning o’z qo’li bilan yozgan qo’lyozmasi saqlanib qolgan emas. Bu holat ham muammoning nechog’li dolzarb ekanidan dalolat beradi. Asarning 1926- va 1933- yillarda chop etilgan nashrdan muallifning ko’ngli to’lmagan. Romanning to’liq holda chop etilish davri adibning moskvada oqigan yillariga to’g’ri keladi.

Yozuvchi asarni yozish chog’ida hayotiy voqea-hodisalarga ko’proq murojaat qilgani haqida shunday yozadi: “Haqiqiy yozuvchi bo’lmoq uchun turmushni har taraflama o’rganish, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo’lish kerak. Qisman mening boshimdan kechirganlarim mening yozuvchi bo’lishimda kattagina rol o’ynaganlar. Haqiqiy yozuvchi bo’lishni istagan yoshlarimiz ham dastlab shu turmush ichiga kirishlari, uni bilishlari kerak. Turmushning turli sohalarida ishlashim natijasida men o’zbeklarning urf-odatlarini, ular ichida uchraydigan tiplarni o’rganoldim [12;13]. Qodiriyning bu asari dunyoning bir nechta tillariga tarjima qilingan.

Roman nusxalarini qiyosiy o’rganish jarayonida adabiyotshunos olimlar va yozuvchilar, tadqiqotchilar o’rtasida juda ko’p muammolar, uslubiy, imloviy xatolarga oid turlicha qarashlar paydo bo’ldi. Bu buyuk asarning tugal nusxasini yaratish bugungi kun adabiyotshunos va tilshunos olimlarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Ushbu asar o’z davrida juda ko’p g’arb va sharq tillariga tarjima qilingan va bugungi kunda ham bu tarjimalar davom etmoqda.

2018-yil “O’tkan kunlar” romani “Bygone days” nomi bilan ingliz tiliga mutarjim Kerol Yermakova tomonidan tarjima qilingan va Frantsiyaning „Nouveau Monde Editions“ nashriyotida Juli Uikeden muharrirligi ostida chop etilgan [8;489].

Ushbu tarjimada o’quvchilar hech qanday muammoga duch kelmasligi uchun tarjimon romandagi ismlar tarjimasini ham bilvosita amalga oshirgani, tarjima jarayonida muallif uslubini qayta yaratishga, asar ritmi va intonatsiyasini saqlash, qahramonlar nutqini asliyatdagi tabiiyligi kabi aks ettirish, milliy koloritni qayta yaratish, frazeologizmlarning muqobil variantini topish kabi masalalarga e’tibor bilan yondoshgani haqida M. Choriyeva alohida ta’kidlab o’tadi [5; 265-274]. D.Xalimova esa romanning “Otabek-Yusufbek xoji o’g’li” nomli faslining K.Yermakova tomonidan qilingan tarjimasini tahlili davomida mutarjimning aksariyat hollarda asliyat ekvivalentini to’g’ri topa olgani va ushbu tarjima semantik va uslubiy jihatdan yangi ijodiy asar bo’lganini ehtirol etadi [6; 659-665].

Shuningdek, 2019-yil amerikalik tadqiqotchi va tarjimon Mark Edvard Riz tomonidan „Days Gone By“ nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilingan [9;496]. Mark Edvard Riz ushbu kitobni 15 yil davomida tarjima qilgan va asar 660 sahifadan iborat bo’lib, unda amerikaliklarga tushunarli bo’lishi uchun 400 dan ortiq izoh va sharhlar yozgan. Ushbu nashr nusxasi AQSHning Kongress kutubxonasidan o’rin olgan. Jurnalist Shoiray Boymurodovanning «O’tkan kunlar”ni ingliz yoki boshqa xalqlar adabiyotining qaysi asariga qiyoslagan bo’lar edingiz?- degan savoliga Mark Riz shunday javob bergan: “Ayni paytda o’zimni ham o’ylantirgan juda qiziqarli savol. Menga bu roman Uilyam Folkner

va Jeyms Joys asarlarini eslatadi. Har ikki ijodkorning prozasi juda boy va bir o'qishda anglab yetish murakkab. Bu uch muallif taxminan bir paytda yashab, yangicha g'oyalar silsilasida ijod qilgan va ayni damda, asarlarida o'tmishga nigoh tashlab, zamonasining qiyofasi bilan taqqoslaganlar. Ular o'z davridagi yangilanishlardan rohatlangan, shuhratga ko'milganlar va shu bilan birga, tanqidlardan ham hayiqmagan" [7].

Bundan tashqari "O'tkan kunlar" asari I.To'xtasinov rahbarligida ham bir guruh tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga o'girilgan [8; 489]. G.Odilova o'zbek milliy mentalitetidagi kommunikativ muloqot jarayonini tarjimada ifodalanish holatlarini tadqiq qilish maqsadida "O'tkan kunlar" asarining tarjimon I. To'xtasinov va Mark Riz tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarini o'rganib chiqadi. Tadqiqotchi tarjimada asardagi milliylik va o'ziga xoslikning saqlanish masalalari aksariyat hollarda tarjimon I.To'xtasinov tomonidan e'tiborga olinmaganini shunday ta'kidlaydi: "Romanda O'zbekoyim Otabekni Zaynabning otasinikiga charlarga olib borishga majburlab turgan mahal o'g'li borgisi kelmay xo'r-xo'rlatib choy ichadi va shu yo'l bilan befarqligini ko'rsatadi. Bu esa O'zbek oyimning jahlini chiqaradi. I.To'xtasinov tarjimasida Otabek shunchaki "ovqatlanib o'tiradi", xo'rillatib choy ichish effekti yo'q. O'zbek oyimning gapiga e'tiborsizlik bilan, nima deyapsiz, deganday yumori aks etmagan. Mark Riz esa tarjimada mana shu effektini saqlagan holda, Otabekning xo'rillatib choy ichib o'tirgan holatini inglizcha tarjimada ko'rsata olgan." [153]. G.Odilova shu kabi bir qancha misollar yordamida ikki tarjimon tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni va ayni paytda ularning yutuqlari haqida to'xtalib o'tadi.

Bundan tashqari bir qator tadqiqotchilarimiz ham asarning inglizcha tarjimalari ustida ish olib borganlar.

M.Karimov romanda muallif tomonidan qo'llanilgan tasviriy vositalar, xususan, sinekdoxa, o'xshatish va kinoyalarning asarning K.Yermakova va M.To'xtasinov tomonidan qilingan inglizcha tarjimalarda ifodalanish holatlarini o'rgangan. Tadqiqot ishi doirasida M.Karimov badiiy matnga xos konnotativ ma'noga ega leksik birliklarning tag ma'nolarini izohlab ko'rsatgan, badiiy matnning pragmatik qiymatini tarjimada qayta yaratishda asliyat matnidagi tasviriy vositalarning leksik, semantik va lingvokulturologik omillar ustuvorligini ochib bergan, badiiy tasvir vositalarining badiiy matnda qo'llanilishini konseptual-pragmatik asoslarini aniqlagan va ushbu tasviriy vositalarni tarjima qilish usullari ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Tadqiqot ishida o'xshatish, sinekdoxa va kinoyalarning tarjima matnida aks etishi va uni ikkinchi tilda ekvivalentlik va adaptatsiya usullari orqali amalga oshirilganligi asardan olingan bir necha misollar yordamida ochib berilgan.

Z.Bazarov badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolarini o'rganish asnosida romanda muallif tomonidan qo'llanilgan metafora, metonimiya, mubolag'a hamda frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlarini tadqiq etgan.

Tadqiqotchi M.Kenjayeve "O'tkan kunlar" romanining M.Safarov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi va tarjimon Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalarini qiyoslash orqali romanda qo'llanilgan frazeologik birliklar, parameyalar, istorizmlar, arxaizmlarning asar tarjimalaridagi ifodasini o'rganib, tahlil qilgan holda voqelikni asliyatdan tarjima tiliga o'tish xususiyatlarini aniqlagan va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o'rgangan.

XULOSA

Modomiki, badiiy tarjima ikki til lisoniy-uslubiy xususiyatlarining qiyoslanishi asosida amalga oshirilgan ekan, keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini lisoniy vositalarni ularning nutqiy holatlaridan kelib chiqib, qiyosiy o'rganish ko'proq tortmoqda. Chunki bunday paytlarda lisoniy vositalar asarning mavzuiy, g'oyaviy-estetik jihatlarini obrazlar orqali aks ettiradi. Obrazlar esa o'z navbatida til vositasida yuzaga chiqariladi. Bunday yondoshuv tarjimaga faqat pragmatik jihatdan emas, balki kommunikativ asosda ham yondoshuvga imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlardan foydalanish metodikasi chet tilini o'qitishda samarali yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu maqolada adabiyotlarning turli turlari, ularni o'qitishda qanday qilib samarali qo'llash mumkinligi, shuningdek, bunday yondashuvlarning o'quvchilarga ta'siri ko'rib chiqiladi. Adabiyotlar orqali o'qitish jarayonining qiziqarli va foydali tomonlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Chet tilini o'qitish jarayoni o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar, o'z navbatida, bu jarayonda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda adabiyotlardan foydalanishning asosiy metodikalarini ko'rib chiqamiz.

Chet tilini o'qitishda adabiyotlardan foydalanish metodikasi - bu o'qituvchilar va talabalar uchun muhim bir jarayon. Adabiyotlar, ayniqsa, badiiy va ilmiy asarlar, tilni o'rganish jarayonida bir qancha afzalliklarga ega:

1. Tilni rivojlantirish:

- leksik va grammatik ko'nikmalar: adabiyotlar orqali yangi so'zlar, iboralar va grammatik qoidalarni o'rganish mumkin.
- Matnlardan o'rganish: asarlar kontekstda so'zlarning ma'nosini tushunishga yordam beradi.

2. Madaniyatni o'rganish:

- madaniy kontekst: adabiyotlar orqali chet tilining madaniyati, an'analari va urf-odatlar haqida ma'lumot olish mumkin.
- Tarixiy kontekst: tarixiy asarlar orqali o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari haqida bilib olish.

3. Tahlil va tanqidiy fikrlash:

- tahliliy ko'nikmalar: adabiyotlarni tahlil qilish orqali talabalar o'z fikrlarini ifoda etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.
- Muammoli savollar: o'qituvchi adabiyotlarni muammoli savollar bilan muhokama qilishni tashkil etishi mumkin.

4. Yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish:

- yozma ishlar: talabalar adabiyotlar asosida insholar, esse yoki xulosalar yozishlari mumkin.
- Og'zaki muloqot: asarlar asosida muloqot qilish, rol o'ynash va bahs-munozaralar o'tkazish.

5. Motivatsiya va qiziqish:

- qiziqarli materiallar: badiiy asarlar ko'pincha talabalar uchun qiziqarli bo'ladi, bu esa ularning chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
- Ijodkorlik: talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi.

Shuningdek, chet tilini o'quv va ilmiy adabiyotlar orqali o'rganishda (nemis tili misolida) o'ziga xos yondashuvlar mavjud bo'lib, bugungi kunda chet tilini o'rganuvchilar

uchun muhim metod hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarga, - integrativ yondashuv: adabiyotlarni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali bilimlarni kengaytirish.

- Interaktiv usullar: o'yinlar, munozaralar va guruh ishlari orqali faol o'qitish.

- "DaF darslaridagi metodlar": DaF darslarida qo'llaniladigan turli o'quv metodlari haqida umumiy ma'lumot, shu jumladan kommunikativ yondashuvlar va vazifaga asoslangan o'qitish.

- "DaF darslarida autentik materiallardan foydalanish": autentik matnlar va media vositalarini qo'llashning afzalliklarini ko'rib chiqadi, bu esa o'qishni yanada qiziqarli va dolzarb qiladi.

- "DaF darslarida madaniyroq kompetensiya": madaniy jihatlarni darsga qanday kiritish mumkinligi haqida tahlil, bu nemis madaniyatini tushunishni oshirishga yordam beradi.

O'quv qo'llanmalari sharhlari.

- "O'quv qo'llanmalari taqqosi: Schritte international vs. Menschen": ikkita mashhur o'quv to'plamini taqqoslash, ularning kuchli va zaif tomonlarini ko'rib chiqadi. Bu adabiyotlarda qo'llanilgan metodlar bir-birini takrorlash bilan birga mutanosib jihatlari ham mavjuddir. Ularni bugungi kunda Yurtimizda yaratilgan adabiyotlar bilan solishtirilganda, misollarining mazmun va mohiyatan farqlidir.

Mutaxassis jurnallari

- "Nemis tili chet tili sifatida": ushbu jurnal muntazam ravishda DaF darslari uchun yangi metodlar, tadqiqot natijalari va amaliy maslahatlar haqida maqolalar e'lon qiladi.

Onlayn resurslar

- Deutsche Welle: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun bepul materiallar va maqolalar taklif etadi.

- Goethe-Institut: turli DaF darslari bo'yicha ko'plab didaktik materiallar va mutaxassis maqolalari mavjud.

Kitoblar

- "DaF oson qilib o'qitish" Susanne Bäuerle: darslar uchun ko'plab maslahatlar va metodlarni o'z ichiga olgan amaliy qo'llanma.

"DaF darslarida grammatikaning roli": grammatikaning til o'qitishdagi ahamiyati bilan tanishuv.

1. O'qish materiallari tanlash

O'quvchilarning qiziqishlariga va yoshiga mos keladigan adabiyotlarni tanlash juda muhimdir. Hikoyalar, romanlar, she'rlar yoki maqolalar - bularning barchasi tilni o'rganishda foydali bo'lishi bilan birgalikda bugungi kun muhitiga ham bog'liqdir. Tanlangan materiallar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, madaniyatni tushunishga yordam berishi kerak.

2. Tahlil va muhokama

O'qilgan matnlarni tahlil qilish va muhokama qilish orqali o'quvchilarning tushuncha darajasini oshirish mumkin. Ularning fikrlarini so'rab, savollar berish orqali matnning mazmuni va muhim g'oyalari haqida chuqurroq fikr yuritishga yordam beriladi. Bu jarayon o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

3. Leksik va grammatik mashqlar

Adabiyotlarda uchraydigan yangi so'zlar va grammatik tuzilmalarni o'rgatish jarayonida adabiyotlarni qo'llash juda samarali. O'quvchilar yangi so'zlarni kontekstda

o'rganadilar va bu ularning yodda saqlashlariga yordam beradi. Masalan, bir hikoyadagi yangi so'zlarni tahlil qilib, ularni turli kontekstlarda ishlatishni o'rgatish mumkin.

4. Ijodiy yozuv

O'quvchilarga o'qigan matnlari asosida ijodiy yozuv topshiriqlarini berish, ularning fikrlarini ifodalashga yordam beradi. Bu jarayon orqali o'quvchilar o'z fikrlarini yaratishda erkinlik his qiladilar va yozma til ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

5. Rol o'ynash

Adabiyotdagi qahramonlar yoki voqealarni rol o'ynash orqali o'quvchilarga interaktiv tajriba taqdim etish mumkin. Bu usul nafaqat qiziqarli, balki o'quvchilarni matn bilan bog'lashga yordam beradi. Rol o'ynash orqali o'quvchilar tilni amaliy ravishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

6. Audiovizual materiallar

Kitoblarning film yoki audiovizual versiyalarini ko'rish, o'quvchilarning tushunishini yaxshilaydi va qiziqishni oshiradi. Bu usul vizual va eshitish orqali ta'sir ko'rsatib, tilni o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.

7. Kross-kultural ta'sir

Chet tilini o'qitishda adabiyotlar orqali boshqa madaniyatlar bilan tanishtirish muhimdir. O'qituvchi adabiyot orqali madaniy kontekstni taqdim etishi, shuningdek, o'quvchilarga boshqa xalqlarning an'analari va qadriyatlari haqida ma'lumot berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitishda adabiyotlardan foydalanish metodikasi nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki talabalarni madaniy jihatdan boyitadi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. O'qituvchilar ushbu metodlarni samarali qo'llab, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari, shu barobarida adabiyotlar orqali o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligi oshadi, bu esa ularning chet tilini o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бархударов Л.С. Что нужно знать переводчику? //Тетради переводчика. Вып. 15.-М.: Международные отношения, 1978.-С.18-25.
2. Бертельс Е. А. К вопросу о традиции в героическом эпосе тюркских народов // Советское востоковедение. - М.-Л., 1947 №4.-С. 73-79.
3. Bozorova N. "Ko'ngil" timsoli tarixiga doir // O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent: 2000.-№ 11.-В. 29-32.
4. Белинский В.Г. Избранные философские сочинения, том II, 1947. –С. 453
5. Choriyeva M. "O'tkan kunlar" romani tarjima variantlarida milliylik ifodasi, o'girmalardagi tafovut va o'xshashliklar// Uchinchi Renassans: ilm-fan vat a'lim taraqqiyoti istiqbollari., №7. В. 265-274.
6. Halimova D. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asari inglizcha tarjimasida badiiy tasvir vositalarining berilishi //Academic research in educational sciences. VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal. P.659-665.
7. <https://kun.uz/news/2021/04/28/otkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F04%2F28%2Fotkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi>

8. Kadiri A. The days gone by. M. To`xtasinov. Toshkent: 2017.-B.235. Kadiri A. Days gone by. K. Yermakova. Nouveau Monde Editions: 2018. –P. 489. <https://www.nouveau-monde.net/catalogue/days-gone-by/>
9. Mark Reese. Bygone days. Muloqot cultural project. 2019. -P.496. <https://www.amazon.com/Bygone-Days-Kunlar-Abdullah-Qodiriy/dp/057846729>
10. Odilova G.K. O`zbek va ingliz mumtoz she`riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari.f.f.n. diss.... –Toshkent: -B.153
11. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. — Тошкент: Фан,1980. — 158 б
12. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. Toshkent: O`qituvchi, 1995. –B.13.